



Yuy Szyun,
XXRning
O'zbekistondagi
Favqulodda va
muxtor elchisi

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi
bilan bejiz bunday qo'shma loyihani
boshlamadik. Biz bu partiyaning ustuvor
g'oyasi ta'lim-tarbiya bilan bog'liq ekanini
yaxshi bilamiz va hurmat qilamiz»

2s

O'ZBEKISTON

to'rt kunlik ish vaqtiga
o'tadimi, yo'qmi?

4
5 DAY WORK V

5s



«MILLIY TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING UTIMOVIY-
SIYOSIY GAZETASI

milliy tiklanish

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

№ 39
(227) 2023-yl
15-mayda chiqarilgan
Adosi - 7 186



PARLAMENT SO'ROVIGA TO'LIQ
JAVOB BERILMAGANI BOIS SO'ROV
HUKUMATGA QAYTARILDI

Parlament quyi palatasining
majlisida Bosh vazir
o'rinbosari A.Ramatovga
yuborilgan yo'l harakati
xavfsizligini ta'minlash
sohasiga zamonaviy axborot
texnologiyalarini joriy
etish borasida amalga
oshirilayotgan ishlar holati
yuzasidan parlament
so'roviga kelgan javob
ko'rib chiqildi. Bu bo'yicha
Mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo'mitasi raisi
Erkin Solihov ma'lumot
berdi:

— Mamlakatimizda avtomobil
yo'llari infratuzilmasini
va ularning sifatini
yaxshilash, harakat
xavfsizligini ta'minlashni
zamonaviy talablar asosida
takomillashtirishga qaratilgan
bir qator normativ-huquqiy
hujjatlar qabul qilindi.
Ular asosida yo'l harakati
xavfsizligini ta'minlashning
dolzarb yo'nalishlaridan biri
sifatida yo'l harakatini tashkil
etishni to'liq raqamlashtirish,
ilg'or axborot-kommunikatsiya
texnologiyalarini joriy qilgan
holda yangi boshqaruv va
nazorat tizimlarini tatbiq
qilishga qaratilgan tadbirlarni
amalga oshirish nazarda
tutilgan.

Davomi 3-sahifada



Tariximizning 3000 yillik
taraqqiyot davri, uning
evolyutsiyasi, dinamikasi,
hatto turli xonliklar,
podsholiklar davri ham
yaxlit holda o'rganilishi
lozim.

O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXINI QACHON O'RGANA BOSHLAYMIZ?

Kecha poytaxtdagi Yoshlar ijod
saroyida «Milliy tiklanish» demokratik
partiyasi tashabbusi bilan «Tinchlik
va taraqqiyot uchun butunjahon
fan kuni»ga bag'ishlangan «Ilm-
fan tinchlik va taraqqiyot uchun,
taraqqiyot ilm-fan uchun» shiori
ostida forum tashkil etilib, uning
doirasida «Qo'lyozma manbalarda
o'zbek davlatchiligi tafakkuri tarixini
o'rganish masalalari» mavzusida
ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, dunyoda davlat qurgan
xalqlar ko'p emas. O'zbek xalqi
esa o'ziga xos davlatchilik tajribasi
va an'analarga ega bo'lgan kam
sonli xalqlardan biridir. Biroq yaqin
tariximizda xalqimizning azaldan

davlatchilik sohibi bo'lgani bilan
bog'liq dalillar inkor etilib, xalqimiz
ongliga imperiyaparastlik, shovinizm,
kommunistik mafkura talablari
ustalik bilan singdirib kelindi.

Davomi 2-sahifada

≡ «MILLIY TIKLANISH»



≡ ANONSLAR

U BOR YO'G'I 30 YOSHDA EDI

YOXUD SOLOVKI LAGERIDA
TOMGAN SO'NGGI TOMCHI
YOSH HAQIDA...



6s

» TOSHKENT SAMMITI: O'ZBEKISTON PREZIDENTI
YANA BIR BOR MUAMMOLI MASALALAR
BO'YICHA ANIQ YECHIMLAR TAKLIF QILDI

3s

YANGI O'ZBEKISTON — BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDAGI PARLAMENT ODIMLARI

4s

OLIV MAILIS QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATLARI DIQQATIGA! JAZAVAGA TUSHAYOTGAN ORSIZLIK

millat uchun, yangi
avlod uchun qimmatga
tushmayaptimi?

«Shapaloq»chilar elga taqdim etayotgan o'z
videolarini o'g'illari, qizlari yoki kelinlari
va hatto nabira qizlari ko'rishi haqida ham
hech o'g'lab ko'rganmikinlar? Va'ni, ularning
o'zlari o'sha «hadho'y» chiqishlarini oilasi
davrasi — qizi, o'g'li, kelini yoki
nevarasi bilan birga tomosha qilishga
jazzm eta olarmikin?

7s




BOJXONADAGI «UMR» IKKI BAROBARGA QISQARDI

3s

2023-yilning
15-noyabr sanasidan.
Manba: cbi.uz

✓ AQSH dollari 12289.98. ✓ 1 YEVIRO 13169.94. ✓ 1 Rossiya rubli 134.50. ✓ 1 Angliya funt sterlingi 15119.13. ✓ 1 Yaponiya iyenasi 81.01.



(Boshlanishi 1-betda)

O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXINI QACHON O'RGANA BOSHLAYMIZ?



aqat mustaqillik yillaridagina o'zbek milliy davlatchiligi, xalqimizning bu boradagi o'ziga xos tajribasi, eng muhimi, o'zbek davlatchiligi tarixi davomida erishilgan natijalar haqida gapirish imkoniyati yaratildi. — Ammo ana shu davrda ham tarixni anglash va anglatish, milliy davlatchilik bilan bog'liq holatlarni real aks ettirish masalasida ayrim xatolarga yo'l qo'yildi, — dedi tadbirida falsafa fanlari doktori, professor Narzulla Jo'rayev.

Faqat Yangi O'zbekiston islohotlari davridagina O'zbek davlatchilik tarixini o'rganishning yangi metodologik Konsepsiyasini yaratish g'oyasi ilgari surilib, 3000 yillik o'zbek davlatchilik tarixining bugun voqelikka aylanishi hamda ko'p asrlik siyosiy chalkashliklarni oldini olish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Qayd etish joiz, o'tgan davr mobaynida davlatchilik tarixida asosan Amir Temur va

qaratilmadi. Shuningdek, sovet davri tarixi, chor Rossiyasi istilosi, bosmachilik va jadidlar harakatiga xolis va haqqoniy baho berishda ham noxolis yondashuvlarga yo'l qo'yib berildi.

Shundan kelib chiqib, O'zbek davlatchiligi tarixini chuqur, keng miqyosda va izchil o'rganish, bu borada tarixiylik va xolislik tamoyillariga qat'iy amal qilish orqali tarixiy haqiqatni jamoatchilikka yetkazish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biriga aylandi.

Tan olaylik: bugungacha ham O'zbek xalqining davlatchilik tarixiga oid qo'lyozmalar boshqa davlatlar, jumladan, Pokiston, Hindiston, Mo'g'liston, Bangladesh, Eron Islom Respublikasi kabi mamlakatlarda saqlanmoqda. Ma'lumki, davlatchiligimizda yorqin iz qoldirgan shaxslar, xususan, sarkardalar o'z tasarrufiga o'tgan mamlakatlarga kutubxonalarini olib borganlar. Shuning uchun ham davlatchiligimiz tarixiga oid ko'plab manbalar o'sha yurtlarda qolib ketgan. Bunday holat ham O'zbek davlatchiligiga atroficha baho berish imkonini cheklab qo'yyapti.

Shuning uchun ham davlatchiligimiz mohiyati va asosini ochib berish, milliy,

tarixiy-ilmiy va madaniy manbalarni o'rganish va targ'ib etish borasida buyuk ajdodlarimiz asarlari va qo'lyozmalarini tadqiq etish, ularni o'zbek tiliga o'girish va nashr etilishiga erishishimiz kerak. Buning uchun nimalar qilinishi kerak, hukumatga qanday takliflar kiritilishi zarur, bu borada qonunchilikda qanday muammolar bor, tarixchi olimlarning fikrlari qanday? «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining aynan bu ishlarga mas'ul siyosiy kuch sifatida ushbu ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etishdan ko'zlagan maqsadi ham shu edi aslida.

Tadbirni partiya raisi Alisher Qodirov ochar ekan, partiya faollarini bezovta qilayotgan masalalar bu — tarixiy manbashunoslik, xalqimiz o'tmishini xolis o'rganish va bu boradagi siyosiy chalkashliklarga barham berish, real haqiqatlarni jamoatchilikka yetkazish hamda xorijdagi yurtdoshlarimizga tegishli tarixga oid manbalarni o'rganish ekanini qayd etdi.

Konstitutsion islohotlar jarayonida Konstitutsiyamizga 3000 yillik davlatchilik tariximiz degan jumla ham kiritildi. Albatta, bu juda katta tushuncha va endi uni ilmiy asosga aylantirishimiz kerak. Buning uchun Xitoy, Eron,

Turkiya, Pokiston va Hindiston kabi davlatlarda saqlanayotgan manbalar o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim, — dedi Alisher Qodirov.

Bunda, shubhasiz, tarixchi olimlar xizmatiga tayanamiz. Shu bois, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan yosh olimlarni bu borada qo'llab-quvvatlash, xususan, xorijiy davlatlarda tariximiz bilan bog'liq manbalarni o'rganish, tadqiq etish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadigan yoshlarni «El-yurt umidi» jam'armasi orqali qo'llab-quvvatlash taklifi ilgari surilyapti.

O'zbekiston jahon tillari universiteti professori Narzulla Jo'rayev «Yangi va eng yangi davr davlatchiligi tafakkurining qiyosiy tahlili» mavzusida ma'ruza qilib, tarixni o'rganish, unga yangicha nazar bilan qarash, bizga noma'lum bo'lgan qatlarni tadqiq etish eng dolzarb masala ekanini ta'kidladi. Zotan, kelajagimizni belgilashda tarixning o'rnini katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda, tariximizning 3000 yillik taraqqiyot davri, uning evolyutsiyasi, dinamikasi, hatto turli xonliklar, podsholiklar davri ham yaxlit holda o'rganilishi lozim.

Olim Mustaqillik davrini o'rganishning o'ziga yarasha oson va qiyin tomonlari haqida ham sozlab o'tdi. Oson tomoni shundaki, bugun biz ayni tariximizning bevosita ishtirokchisimiz. Umuman olganda, har qanday tarix o'sha davrda yashagan odamlarning aqliy mahsulidir. Bugun biz yaratayotgan jamiyat ham bizning aqlimiz mahsulati. Aqlimiz doirasida faoliyat ko'rsatadi.

Demak, agar 3000 yillik tariximizni elakdan o'tkazadigan bo'lsak, u har bir davr kishilarining dunyoqarashi, ularning ma'anaviy-axloqiy jihatlari, ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib

baholanishi lozim. Vaholanki, hozirgacha tariximiz faqat raqam va sanalar, statistikadan iborat bo'lib qolgan edi. Ularning ostida esa insonlar taqdiri, uning iztiroblari, sevinch va xulosalari, yutuq va g'alabalari, shu bilan birga sitamlarini unutdik. Tarixning ulug' murabbiyligi ham chetga surildi.

Tadbir ishtirokchilari tarixchi olimlar Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori M.Is'hokovning «Milliy davlatchilikning konseptual asoslari», O'zFA vitse-prezidenti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori B.Abdulhalimovning «O'zbek xalqi va davlatchiligiga oid moddiy va yozma manbalarni aniqlash, o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish masalalari», O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bosh ilmiy xodimi Z.Minovarov hamda Xalqaro Islom Akademiyasi prorektori, professor Z.Islomovning «Arab manbalarida o'zbek davlatchiligi tarixining aks ettirilishi» kabi mavzulardagi ma'ruzalarini ham eshitib, bir-biridan yangi ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Anjumanda barcha olimlar hamda ekspertlarning fikr-mulohazalari eshitilib, qo'lyozma manbalarda o'zbek davlatchiligi tafakkuri tarixini o'rganish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, O'zbek davlatchiligi mohiyatini bunyodkorlik va ma'rifat tashkil etishini qo'lyozma manbalar asosida yoritib berishga kelishib olindi.

Hamdam NIYOZOV,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

KONSTITUTSION ISLOHOTLAR JARAYONIDA KONSTITUTSIYAMIZGA 3000 YILLIK DAVLATCHILIK TARIXIMIZ DEGAN JUMLA HAM KIRITILDI. ALBATTA, BU JUDA KATTA TUSHUNCHA VA ENDI UNI ILMIY ASOSGA AYLANTIRISHIMIZ KERAK.

temuriylar davri vakillari, milliy adabiyotda Alisher Navoiy, diniy ulamolardan Imom Buxoriy, ilmfan yo'nalishida Mirzo Ulug'bek kabi allomalar faoliyati o'rganildi. Ammo Shayboniylar, Mang'itlar, Ashtarxoniyalar, G'aznaviy Saljuqiylar, Turk hoqonligi kabi O'zbek davlatchiligining ajralmas qismi bo'lgan sulola vakillari faoliyatiga esa deyarli e'tibor

✓ TA'LIMGA MADAD

«Milliy tiklanish» va XXRning O'zbekistondagi elchixonasi qo'shma loyihasiga start berildi

Bugunga kelib O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik strategik sheriklik darajasida izchil rivojlanayapti. Ayniqsa, bunda ta'lim sohasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash lozim.

Qayd etish joiz, kecha ana shu hamkorlik natijasi sifatida birinchi bo'lib, poytaxtimizdagi 83-sonli maktabga Xitoyning yurtimizdagi elchixonasi tomonidan «Huawei» kompaniyasida ishlab chiqarilgan aqlli doskalar topshirildi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va XXRning O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligida tashkil qilingan qo'shma loyiha doirasida yurtimizdagi ko'plab maktablarga ana shunday zamonaviy o'quv jihozlarini sovg'a qilish ko'zda tutilgan.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi bilan bejiz bunday qo'shma loyihani boshlamadik. Biz bu partiyaning ustuvor g'oyasi ta'lim-tarbiya bilan bog'liq ekanini yaxshi bilamiz va hurmat qilamiz, — dedi XXRning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun.

Partiya Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirov esa mamlakatimizda «Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi!» degan g'oya bejiz ilgari surilmaganini qayd etdi.

— Chunki taraqqiyot ta'lim-tarbiya sohasi muvaffaqiyatga erishmasdan amalga oshmaydi. Taraqqiyotni esa faqat yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rgan avlodlarga amalga oshiradi. Xitoy bunga yaqqol namunadir, — dedi Alisher Qodirov.

Tadbir o'quvchilarning chiqishlari va kuy-qo'shiqlarga ulandi. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, Mirobod tumanidagi ushbu maktab 1926-yilda tashkil topgan bo'lib, 2020-yilda qayta ta'mirlangan. 2021-yilda esa 600 o'rinni qo'shimcha bino qurilgan. Ayni paytda 1130 o'rinda mo'ljallangan maktabda 1634 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.





Toshkent sammiti:

O'ZBEKISTON PREZIDENTI YANA BIR BOR MUAMMOLI MASALALAR BO'YICHA ANIQ YECHIMLAR TAKLIF QILDI

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toshkent sammiti kutilganidan ham samarali bo'ldi.

Ma'lumki, ushbu tashkilotga 1985-yili asos solingan bo'lib, mamlakatimiz 1992-yilning noyabr oyidan buyon unga a'zo hisoblanadi. Ekspertlarning fikricha, 2017-yildan keyin O'zbekistonning ochiq pragmatik tashqi siyosati, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarini o'rnatishi va bu murakkab vazifani uddalashi natijasida IHT faoliyatida tub burilishlar ro'y berdi. Darhaqiqat, IHTga a'zo mamlakatlarning aksariyati Markaziy Osiyo davlatlari bo'lib, ular o'rtasida konstruktiv muloqotlardan

qilish, kelajakdagi ustuvor soha va tarmoqlarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Ma'lumki, strategik maqsadlarning eng asosiysi yillar davomida ta'kidlansa-da, lekin ijrosi ta'minlanmayotgan masala, ya'ni, a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo to'siqlarini olib tashlash masalasida o'zaro savdo-sotiqni osonlashtirish to'g'risidagi bitim qabul qilinishini tezlashtirish masalasi ilgari surildi. Darhaqiqat, a'zo mamlakatlar o'rtasidagi jami savdo hajmi 85 milliard bo'lib, bu ularning umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizini tashkil etayotgani imkoniyatlarning to'liq ishga solinmayotganini anglatadi. Tashkilotning bosh maqsadi esa a'zo

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017-yilda qabul qilingan IHTning asosiy hujjati bo'lgan «ISTIQBOLLAR – 2025» tanqidiy sarhisob qilinib, «Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035» konseptual hujjatini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

foydalanilmagan paytlarda IHT faoliyatini ijobiy baholab bo'lmas, nomi boru, amalda esa natija bermayotgan tashkilot sifatida baholanardi. Bugun esa IHT dunyoda o'z o'rniga ega bo'lgan va a'zo mamlakatlarga manfaat keltiruvchi muloqot maydoniga aylandi. IHT ayni paytda 500 millionli aholisi bo'lgan 10 ta davlat, 8 mln. kv.km maydon va dunyo energoresurslarining uchdan bir qismini o'zida mujassam qilgan strategik hudud ham hisoblanadi.

Globalashayotgan dunyoda har qanday resurs, hatto bir dollar investitsiya uchun ham raqobat kuchayayotgan paytda IHTga a'zo mamalakatlarning savdo iqtisodiy, investitsiyaviy salohiyatlaridan yanada samarali foydalanishi, davlatlarning bir-birlari iqtisodiyotini to'ldirish orqali keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirishi o'ta muhimdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan IHTning 16-sammitida arxitekturası tubdan o'zgarayotgan dunyoda iqtisodiy xavflarga qarshi birgalikda kurashish hamda a'zo davlatlar manfaatini inobatga olgan holda sa'y-harakatlarni birlashtirish muhim ekani ta'kidlanib, ko'plab tashabbuslar ilgari surildi. Kelgusida ham IHTning samarali platformalik maqomini saqlab qolish maqsadida Davlatimiz rahbari tomonidan 2017-yilda qabul qilingan IHTning asosiy hujjati bo'lgan «Istiqbollar – 2025» tanqidiy sarhisob qilinib, «Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035» konseptual hujjatini ishlab chiqish taklifi bildirildi. Ushbu hujjatni ishlab chiqishda esa a'zo davlatlar tomonidan ishga solinmayotgan imkoniyatlarni chuqur tahlil

mamlaktalar iqtisodiyotini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish ekan, bunda mamlakatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, inson resurslari erkin harakatlanishi hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir jihat shundaki, tashkilotga a'zo bo'lgan 10 ta davlatning yettitasi jahon okeaniga chiqish imkoniga ega emas. Aynan shuning uchun transport-kommunikatsiya bog'liqligini kuchaytirish, davlatlarning tranzit salohiyatini oshirish, yangi transport koridorlarini tashkil etish, transport sohasida raqamlashtirish masalalari bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish va jadallashtirish masalasi ham ilgari surildi. Zero, transport iqtisodiyotining muhim arteriyasi bo'lib, usiz iqtisodiy o'sishni tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Sammitda O'zbekiston yetakchisi tomonidan bildirilgan takliflarning yechimlari ham ko'rsatib berildi. Xususan, Toshkentda YEKO raqamli transport va bojxona idorasini ochish, 2024-yilda O'zbekistonda birinchi bo'lib Mintaqalararo sanoat ko'rgazmasini tashkil etish, Turizm bo'yicha maslahat qo'mitasining birinchi yig'ilishini Shahrisabzda o'tkazish taklif etilib, bular bo'yicha O'zbekiston mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor ekanini bildirildi. Shuning uchun ham IHTning Toshkentda o'tgan IHT sammiti O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yana bir bor namoyish etib, tashkilotning kelgusi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi, deyish mumkin.

Nodir TILAVOLDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati



IHT ayni paytda 500 millionli aholisi bo'lgan 10 ta davlat, 8 mln. kv.km maydon va dunyo energoresurslarining uchdan bir qismini o'zida mujassam qilgan strategik hudud hisoblanadi.

BOJXONADAGI «UMR» IKKI BAROBARGA QISQARDI



yoki qanday qilib 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida 16 mingdan ortiq tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bojxona to'lovlarini 39 trln. so'mlik imtiyoz va preferensiyalar qo'llashga, 6,2 trln. so'm miqdorida esa bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lashga ruxsat berilgani haqida

O'zbekistonda keyingi yetti yil tub islohotlar davri bo'ldi. Barcha sohalarida o'zgarishlar ro'y berdi. Davlatimizda tashqi savdo aylanmasini rivojlantirish maqsadida sohani raqamlashtirish, bojxona tartibotlarini yanada soddalashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi.

Bojxona sohasini raqamlashtirishga doir ishlar natijasida tizimda yagona axborot tizimiga birlashtirilgan 67 ta axborot tizimi va 33 ta interaktiv xizmatlar faoliyati yo'lga qo'yildi. 10 dan ortiq mamlakat bojxonasi, 30 ta vazirlik va idoralar, 25 ta aviakompaniya bilan axborot almashinuvi uchun imkoniyat yaratildi.

Nazorat va rasmiylashtiruv jarayonlarini tezlashtirish maqsadida, yangi «E-tranzit», «Yuk operatsiyalari», «Elektron bojxona kuzatuv», «Bojxona ko'rigi» axborot tizimlari amaliyotga joriy etildi. Ushbu tizimlar orqali 1,6 milliondan ortiq deklaratsiyalar rasmiylashtirilib, 700 mingga yaqin yuk operatsiyalari amalga oshirildi. Ilgari chegara postlarida tarozl, rentgen qurilmasi, transport qaramini qayd etish, shlagbaum va boshqa jarayonlarning har biriga xodim jalb etilgan bo'lsa, endi mazkur transport nazorati sun'iy intellekt yordamida, ya'ni inson omilisiz amalga oshirilyapti. Eng muhimi, chegaradagi barcha idoralar uchun yagona axborot tizimida bir vaqtning o'zida ishlash imkoniyati yaratildi.

Idoralararo «Yagona darcha» bojxona axborot tizimiga 10 dan ortiq tashkilotlar integratsiya qilinib, 60 ga yaqin turdagi ruxsatnomalarni elektron tarzda taqdim etish yo'lga qo'yildi. Pirovardida, tizimda 65 mingdan ziyod foydalanuvchilar

ro'yxatga olinib, 3 milliondan ortiq ruxsatnomalar rasmiylashtirildi.

Quvonarlisi, tovarlarni omborlarga joylashtirish, ro'yxatga olish, hujjatlardan nusxalar olib qolishda qog'ozbozlikdan voz kechilib, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini yanada soddalashtirishi natijasida bojxona rasmiylashtiruv vaqtini qariyb 2 barobarga qisqartirishga erishildi.

Bu vaqt eksport rejimida 2017-yilda o'rtacha 5 soat 42 daqiqani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 30 daqiqani tashkil etmoqda. Bojxona yuk deklaratsiyalarini sun'iy intellekt yordamida avtomatik tarzda rasmiylashtirish hajmi 15 foizga yetkazilib, bu ko'rsatkich xavf darajasi past bo'lgan tovarlarning eksportida 85 foizni tashkil qildi. Eng asosiysi, eksportga yuklarni rasmiylashtirishda «Yagona darcha» tamoyili joriy qilindi. Bojxona yuk deklaratsiyalarini masofaviy elektron shaklda rasmiylashtirish yo'lga qo'yildi.

Bojxona organlarining Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorligining yangi bosqichga chiqishi esa Bojxona qo'mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasini yanada takomillashtirish, ekspertiza jarayonlarini qisqarishi va sinov natijalarini mintqa miqyosida tan olinish imkonini berdi.

Shu o'rinda 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida 16 mingdan ortiq tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bojxona to'lovlaridan 39 trln. so'm

miqdorida imtiyoz va preferensiyalar qo'llanilganini 6,2 trln. so'm miqdoridagi bojxona to'lovlarini esa kechiktirib to'lashga ruxsat berilganini aytish joiz. Xavflarni boshqarish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish yo'nalishida 780 mlrd. so'mlik tovarlarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yilgan bo'lsa, xalqaro hamkorlik yo'nalishida 8 ta xalqaro hujjat imzolandi. Sohani yanada rivojlantirish maqsadida 5,3 mln. dollar grant mablag'lari jalb qilindi.

Mazkur sohadagi islohotlar natijasida ilgari xomashyo mahsulotlari importini amalga oshirib kelgan ko'plab tadbirkorlarimiz endilikda bojxona to'lovlaridan ozod qilingan hudud imkoniyatlardan foydalanmoqdalar. Ular tomonidan 66 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib, xorijiy mamlakatlarga umumiy qiymati 429 mln. AQSH dollarini tashkil etuvchi tovarlar eksport qilindi.

Umuman olganda, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini optimallashtirish va byurokratik yukni yengillatish tovarlarni eksport qilish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, mamlakat mahsulotlarini jahon bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Farhod ZAYNIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

PARLAMENT SO'ROVIGA TO'LIQ JAVOB BERILMAGANI BOIS SO'ROV HUKUMATGA QANTARILDI

(Boshlanishi 1-belda)

Parlament so'roviga berilgan javobda ham bu sohada amalga oshirilgan ishlar va kelgusida belgilangan vazifalar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Biroq, o'rganish natijalari taqdim etilgan ma'lumotda aynan parlament so'rovida ko'tarilgan

masalalarga asosiy e'tibor qaratilmagani va buning natijasida so'rovda qayd etilgan kamchiliklar, sohadagi dolzarb masalalar yuzasidan qo'yilgan savollarga yetarli va to'liq javob berilmaganini ko'rsatdi. Fraksiyalar yig'ilishlarida ham parlament so'roviga

berilgan javob atroflicha muhokama qilindi. Shunday xulosaga kelindiki, vazir mazkur parlament so'rovini qayta ko'rib chiqib, unda qo'yilgan har bir masala yuzasidan joriy yilning 1-dekabriga qadar to'liq va asoslantirilgan javob bersa, maqsadga muvofiq bo'ladi, dedi deputat.

Majlisda Bosh vazir o'rinbosari mazkur parlament so'rovini qayta ko'rib chiqib, 1-dekabr qadar to'liq va asoslantirilgan javob berish yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Muhtarama KOMILOVA,
O'ZA



«O'ZBEKISTON-2030» STRATEGIYASINI NEMISLAR QANDAY BAHOLADI?

Kelgusi sonlarda



Akmal SAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikerining birinchi
o'rinboshi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLEYASINING 78-SESSIASIDAGI NATQIDA YANA BIR BOR «O'ZBEKISTON – 2030» TARAQQIYOT STRATEGIYASI BMTNING «BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI»GA UYG'UN EKANINI ALOHIDA TA'KIDLADI.

YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

Shu o'rinda, avvalambor, 2015-yilda BMT butunjahon sammitida 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish Kun tartibi, uning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari tasdiqlanganini eslatib o'tish zarur. Xususan:

- Barqaror rivojlanish maqsadlari dunyo bo'ylab barcha turdagi qashshoqlikka barham berish;
- o'chlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligi va yaxshi ovqatlanishga erishish, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish;
- sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish;
- umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga umri davomida ta'lim olish imkoniyatini berish;
- gender tengligiga erishish va xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish va h.k. borasidagi vazifalarni belgilab bergan.

Ushbu Barqaror rivojlanish maqsadlar «uchta ustun» – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni va barqaror rivojlanishni ta'minlash tamoyillariga asoslangan bo'lib, inson qadri, uning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash esa – ularni o'zaro bog'lab turuvchi bo'lg'in hisoblanadi hamda ularning uyg'unligini, bir-birini mustahkamlashini va to'ldirishini, bo'linmasligini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar falsafasi ham o'z navbatida «inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi» hamda 2030-yilgacha mamlakatning barcha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini ta'minlash g'oyalarga asoslangan.

O'tgan davr mobaynida mamlakatda bu borada keng ko'lami va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu boradagi tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etildi. Avvalambor, Barqaror rivojlanish maqsadlari va bu boradagi tegishli vazifalar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 360 dan ziyod qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida o'z aksini topdi.

Shu o'rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid normalar kiritilganligi borasidagi quyidagi ma'lumotlarni keltirish o'rinni deb hisoblaymiz.

Birinchidan, barqaror rivojlanish tamoyili ilk bora yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks ettirildi. Xususan, uning:

- 14-moddasida davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirish;
- 49-moddasida davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi;
- 103-moddasida mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, inson huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma qarori bilan parlament tekshiruv o'tkazilishi mumkinligi mustahkamlab qo'yildi.

Ikkinchidan, o'ta qashshoqlikka barham berish va barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirishni nazarda tutuvchi birinchi Barqaror rivojlanish maqsadlari Konstitutsiyamizning quyidagi normalarida o'z aksini topdi:

• Muqaddimasida erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari aks ettirilgan bo'lsa, 1-moddasida O'zbekistonning ijtimoiy davlat ekanligi;

• 57-moddasida mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidagi, davlat ularning turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'rishni belgilandi. Shuningdek, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektleri va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashish, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlashiga qaratilgan normalar kiritildi;

• 115-moddasida Vazirlar Mahkamasi aholini, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi ko'zda tutildi;

• 122-moddasida – hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlarida nazarda tutildi.

Uchinchidan, ikkinchi Barqaror rivojlanish maqsadlari o'chlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashishni nazarda tutadi. Bu borada Konstitutsiyaning 46-moddasida: har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga egaligi; qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi o'z aksini topgan.

Bunday misollarni boshqa barcha Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ham keltirish mumkin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashning mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi, deb ta'kidlashga barcha asoslar mavjud.

«O'ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

Mamlakatimizning uchta strategik taraqqiyot dasturi:

• 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi;

• 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi;

• «O'zbekiston – 2030» strategiyasi «Kun tartibi – 2030»ga uyg'un bo'lib, O'zbekistonga tegishli bo'lgan 16 ta global Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan milliy maqsad va vazifalarni to'la qamrab olgan.

Masalan, «O'zbekiston – 2030» strategiyasiga e'tibor qaratsak, tahlillar, uning 5ta yo'nalishi BMT tomonidan belgilangan 16ta Barqaror rivojlanish maqsadlarini to'la qamrab olishini ko'rsatadi.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida 2023-yilning o'zida qabul qilinishi rejalashtirilgan 25 ta qonun loyihasi, 39 ta Prezident farmoni va qarorlari, boshqa

Mamlakatda bolalar va chaqaloqlar o'limining sezilarli qisqarishi kuzatilmoqda – har 1000 nafar yangi tug'ilganlarga to'g'ri keluvchi chaqaloqlar o'limi soni 15,4 nafardan 12,3 nafargacha, bolalar o'limi 11,5 nafardan 9,2 nafargacha qisqardi.

normativ-huquqiy hujjatlar (jami – 118 ta) Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o'ziga xos «Yo'l xaritasi» vazifasini o'tashini hamda Strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarining eng ustuvor vazifasi ekanidan ham dalolat beradi.

Jumladan, ushbu Strategiyaning birinchi yo'nalishi har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Birgina shubirinchiy yo'nalishning o'zida O'zbekistonning BMTning 1 va 3–6-chi Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan.

Birinchidan, ta'lim tizimi islohotlari doirasida, xususan:

- bolalarning maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olinishiga erishish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan hamda barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Ta'lim uchun qulay muhit» dasturini amalga oshirish, ularni toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash, yangi avlod darshliklari, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar, multimedia dasturlarini yaratish, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish – yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, «Top-500»ga kiradigan xorijiy universitetlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida «ikki diplomli tizim»ni joriy etish, 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli «Top-1000» oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash kabi aniq ko'rsatkichlar va vazifalar belgilangan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'tgan yetti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. Shuningdek, xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi, 2021-yildan boshlab, har yili 3 mingdan ortiq qiz uchun alohida grantlar ajratilayotgani evaziga yosh ayollarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 5 baravar yaxshilandi. Universitetlarga kiradigan qizlar uchun byudjet kvotasi joriy etilishi evaziga 2021 – 2022-o'quv yilida talabalarining 60 foizini ayollar tashkil etdi.

Ikkinchidan, Yangi O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1373 ta qishloq tibbiyot markazlari qisqartirilib, ular o'rniga 793 ta qishloq oilaviy poliklinikalari, 441 ta shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari va kunduzgi kasalxonalar ochildi. 306 ta shahar va tuman kasalxonalarda yangi ixtisoslashtirilgan poliklinikalar va 1200 ta shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari tashkil etildi. Hududlardagi ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari zarur zamonaviy tibbiyot uskunolari bilan ta'minlandi, 6 ta viloyat onkologik muassasalari 6,5 mln.

AQSH dollariga 15 ta 2 turdagi gamma-terapiya apparatlari bilan jihozlandi.

Asosiysi, mamlakatda bolalar va chaqaloqlar o'limining sezilarli qisqarishi kuzatilmoqda – har 1000 nafar yangi tug'ilganlarga to'g'ri keluvchi chaqaloqlar o'limi soni 15,4 nafardan 12,3 nafargacha, bolalar o'limi 11,5 nafardan 9,2 nafargacha qisqardi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Ushbu chora-tadbirlar aholi salomatligi uchun qulay muhit yaratib, BRMning 3-maqsadiga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Endi mazkur yo'nalishda 2030-yilga qadar aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar doirasida, xususan:

- aholining o'rtacha umr davomiyligini 78 yoshga yetkazish, tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha erta o'limni 2,5 barobar kamaytirish, sil kasalligi bilan kasallanish darajasini 100 ming aholiga nisbatan hozirgi 34 nafdandan keskin kamaytirish;
- aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish, respublikada gemodializ o'rini joylari bilan bemorlarni to'liq qamrab olish, 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish;
- bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarni 2 barobarga qisqartirish, onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash, tug'uruq o'rinlari sonini 35 foizga oshirish, bolalar orasidagi yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni 20 foizga kamaytirish hamda umuman aholi o'rtasida yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta aniqlash darajasini 70 foizga yetkazish;
- sog'lom va faol keksalikni ta'minlash, har yili 55 va undan katta yoshdagi aholini 100 foiz tibbiy profilaktik ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish, 40 yosh va undan yuqori yoshdagi aholi orasida jismoniy faol aholi ulushini 2 barobar oshirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, me'yordan ortiq tuz iste'mol qiladigan aholi ulushini 32 foizga, yetarlicha jismoniy faollikka ega bo'lmagan aholini 22 foizga, ortiqcha vaznga va semizlikka ega katta yoshdagi aholini tegishincha 32 foiz va 23 foizga qadar kamaytirish kabi aniq maqsad va vazifalar belgilangan.

Uchinchidan, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda kambag'allik 2022-yilda 2017-yilga nisbatan ikki barobarga kamaygan bo'lsa, uni 2026-yilga qadar yana 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish rejalashtirilgan.

Kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 mln. aholining daromadlarini oshirish choralari ko'rilishi, mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandlegini ta'minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish belgilangan.

Bu borada «O'zbekiston – 2030» strategiyasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar doirasida, xususan:

- ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi to'liq qamrab olinishiga erishish, barcha tuman va shaharlarda «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil qilish;
- Nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarning sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish, ularni reabilitatsiya xizmatlari bilan to'liq qamrab olish, munosib ish bilan



ta'minlash orqali ular bandligini 2 barobarga oshirish;

- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash orqali ularning boshqaruv lavozimlaridagi ulushini 30 foizga oshirish. Shuningdek, «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;
- 2 mln. nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish, kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish kabi maqsad va vazifalar belgilangan.

Shu kabi misollarni «O'zbekiston – 2030» strategiyasining boshqa yo'nalishlari: barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'ttachedan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rini olish; suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish; qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish; «Xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish bo'yicha ham keltirishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan barcha 100 maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi mamlakatimizning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'la erishishiga xizmat qiladi.

YANGI O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI SOHASIDAGI XALQARO TASHABBUSLARI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72, 75, 76 va 78-sessiyalarida, shuningdek, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida bu borada, Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishini, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizm, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarini qamrab oluvchi 40 dan ortiq tashabbuslarni ilgari surdi.

BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan quyidagi 6 ta Rezolyutsiyani qabul qildi:

1. «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni

mustahkamlash»;

2. «Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasida e'lon qilish»;

3. «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik»;

4. «Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish»;

5. «Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash»;

6. «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida»gi rezolyutsiyalardir.

Shuningdek, Orolbo'yi mintaqasi aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus Trast fondi faoliyat yuritmoqda. BMT va «BMT oilasi»ga kiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda qariyb 140 ta dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'da.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan bugungi kunda sohada:

- BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida «Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030» dasturini ishlab chiqish;
- «Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar» tuzilmasi bilan hamkorlikda ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun 2024-yilda O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazish;
- BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'asis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish hamda mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida «Markaziy Osiyo iqlim muloqoti»ni joriy etish;
- 2024-yilda O'zbekistonda BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan «Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori» borasidagi tashabbus doirasida BMT shafeligidagi «Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo'l» butunjahon konferensiyasini o'tkazish;
- BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik» rezolyutsiyasini qabul qilish va uning asosiy mazmunini 2024-yil Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilish kabi masalalar BMTning kun tartibiga kiritildi.

BARQAROR RIVOJLANISH
YO'LIDAGI PARLAMENT
ODIMLARIBARQAROR
RIVOJLANISH
MAQSADLARI:
PARLAMENT KOMISSIYASI
VA FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARI

Hech shubha yo'qki, milliy siyosat va dasturlarning amalga oshirilishini parlamentlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi O'zbekistonning milliy maqsadlari va ularni amalga oshirilishini nazorat qilish, fuqarolar va davlat organlari hamda mamlakatning boshqa tashkilotlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, parlament, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy hamkorligini yo'lga qo'yish, ushbu masala bo'yicha parlament va jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasi faoliyat olib bormoqda.

Mazkur Parlament komissiyasi, xususan, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid sohalarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda (qonunlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Hukumat qarorlari, amalga oshirilayotgan strategiyalar, konsepsiyalar, maqsadli dasturlar va boshqalar) aks ettirilgan vazifalarni bajarilishi yuzasidan 190dan ziyod indikatorlar bo'yicha monitoringni amalga oshiradi.

Jumladan, 2020- va 2023-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining Yuqori darajadagi siyosiy forumlarida ko'rib chiqilgan O'zbekistonning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to'g'risidagi Ixtiyoriy milliy hisobotlarini tayyorlash hamda Milliy Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish sohasida har bir maqsad bo'yicha ishlab chiqilgan milliy strategiya, «yo'l xaritalari», tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan kuchli parlament va fuqarolik nazoratini o'rnatdi. Masalan, 2021 – 2022-yillarda Parlament komissiyasi tomonidan har chorakda 28 ta mas'ul vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarini jalb qilgan holda Barqaror rivojlanish maqsadlarining alohida maqsad va ko'rsatkichlari bajarilishi bo'yicha muhokama tashkil etildi.

Parlament tashabbusi bilan birgina 2021-yilda birinchi marta o'tkazilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari haftaligi doirasida O'zbekiston mamlakatlar orasida birinchi bo'lib barqaror rivojlanish sohasidagi parlamentariylarning sa'y-harakatlarini birlashtirish tashabbusi bilan chiqdi va Buxoro shahrida «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik» mavzusida dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlaridan parlament a'zolari ishtirok etgan birinchi xalqaro parlament forumi o'tkazildi.

Bundan tashqari, parlament tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun kompleks moliyalashtirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur strategiya Davlat byudjetini ishlab chiqish va amalga oshirishda milliy Barqaror rivojlanish maqsadlarini inobatga olish va sohaga zarur mablag'lar ajratish («Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'naltirilgan byudjetlar» qabul qilish) hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni tezlashtirish uchun moliyaviy oqimlarni to'g'ri taqsimlashda Hukumatga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Kompleks milliy moliyalashtirish strategiyasi – bu rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarining muvofiqlashuvini ta'minlashga, barqaror rivojlantirish maqsadlariga qo'shimcha resurslarni safarbar etish va yo'naltirishga, shuningdek, monitoring va boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratishga yordam beradi.

Parlament komissiyasi

o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirmoqda:

- mamlakatimizda qabul qilinayotgan turli sohalarga oid strategiyalar, konsepsiyalar va dasturlarning milliy Barqaror rivojlanish maqsadlarini hayotga tatbiq etilishiga xizmat qilishiga erishish;

- Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida kuchli parlament va jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada aholi xabardorligini oshirish, davlat tashkilotlari faoliyati ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga ko'maklashish;

- Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasida qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasida xalqaro hamkorlikda, xususan, «parlament va xalq diplomatiyasi» institutlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Natijada, xususan, 2021 – 2023-yillarda mamlakat nodavlat notijorat tashkilotlari, «aql markazlari» tomonidan Parlament komissiyasi bilan hamkorlikda:

- birinchidan, ekologiya sohasida 138 ta uslubiy qo'llanma va maqola tayyorlandi;

- ikkinchidan, 699 ta turli formatdagi nazorat-tahliliy, ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy va amaliy tadbirlar o'tkazildi. Xususan, ekotizimlarni muhofaza qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida qo'riqxonalar va milliy bog'larni tizimli asrash, o'rmon maydonlarini kengaytirish borasida O'zbekiston davlat siyosati va «Yashil makon, sog'lom muhit, sog'lom inson» tamoyilini hayotga tatbiq etish, ekologik ta'lim-tarbiya va boshqa dolzarb masalalarga bag'ishlangan seminarlar, davra suhbatlari va ekologik aksiyalar amalga oshirildi. Ularda 61834 nafar fuqarolar, ekologiya sohasidagi faollar ishtirok etdi;

- uchinchidan, mahallalar obodligini ta'minlash va fuqarolar ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Mazkur yo'nalishda 1 126 ta davra suhbatlari va tadbirlar tashkil etildi, 100 dan ziyod mahallalar obodonlashtirishga ko'maklashildi;

- to'rtinchidan, «Yashil makon» umummilliy loyihasining bahor va kuz mavsumlarida 14 000 tup ko'chat o'tkazishga bag'ishlangan 70 dan ziyod aksiyalar, aholining ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish yo'nalishida esa 40 ta tadbir o'tkazildi.

Bunday misollarni yanada ko'plab keltirish mumkinki, ular bugungi kunda Barqaror rivojlanish maqsadlari butun fuqarolik jamiyati, davlat va biznes hamjamiyatini o'z atrofida jipslashtiruvchi g'oyaga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

BARQAROR
RIVOJLANISH
MAQSADLARINI
BAJARISHDA
PARLAMENTNINING ROLI

Bu boradagi ustuvor vazifalar BMT Bosh Assambleyasining 2022-yil 14-dekabrda «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida»gi rezolyutsiyasida o'z aksini topdi.

Ushbu Rezolyutsiyani hayotga tatbiq etish maqsadida 2022-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining tegishli Qo'shma qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror O'zbekistonning taraqqiyot strategiyalarida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish hamda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlariga erishishda parlament, ijroiya hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali ijtimoiy hamkorlik o'rnatishga yo'naltirilgan. Unda 13ta yo'nalish bo'yicha 50 dan

ziyod aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Navbatdagi o'ta muhim qadam sifatida Parlament tomonidan joriy yilning oktyabr-noyabr oylarida mamlakatimizda Barqaror rivojlanish oyligini o'tkazish rejalashtirilgan.

Oylik doirasida milliy ekspertlar va xalqaro tashkilotlar vakillari, xorijiy davlatlarning yetuk mutaxassislari ishtirokida qator xalqaro konferensiyalar, seminarlar, jamoat eshituvlari va boshqa tadbirlar o'tkazilishi belgilangan.

Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligining asosiy maqsadlari:

birinchidan, milliy va xorijiy jamoatchilik vakillari ishtirokida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan O'zbekiston tajribasini har tomonlama ko'rib chiqib, bu borada o'zaro fikr almashish;

ikkinchidan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda davlat tashkilotlari, idoralar va fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim, tadqiqot va tahlil markazlari ishtiroki sohasidagi ilg'or milliy va xalqaro tajribalar bilan tanishish;

uchinchidan, kelgusida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalarni muhokama qilish.

Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi yakunida Parlamentlararo ittifoq bilan hamkorlikda «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik» mavzusidagi II xalqaro Global forum o'tkaziladi.

Uning doirasida 2030 Global kun tartibini samarali amalga oshirishda parlament va parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, parlamentlar, hukumatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, bu boradagi gender va yoshlar siyosatining ahamiyati kabi masalalar yuzasidan o'zaro fikr almashilishi kutilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasida erishgan yutuqlari va marralari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanganmoqda va e'tirof etilmogda. Xususan, O'zbekiston BMT Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'ini (SDSN) va 2023-yilda xalqaro ekspertlar tomonidan e'lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari reytingida (SDG index) 71,1 indeks bilan 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi. Ushbu natija 2022-yilga nisbatan 8 pog'onaga yaxshilangan.

Mamlakatimizda Barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadi bo'yicha ijobiy o'sishga erishilgan. Jumladan: kambag'allikni qisqartirish (+2,5 ball), gender tengligi (+ 0,1 ball), toza suv va sanitariya (turg'un holatda), barqaror shaharlar va aholi punktlari, (turg'un holatda), tinchlik, adolat va samarali institutlar (+0,4 ball) hamda barqaror taraqqiyot yo'nalishidagi hamkorlik (+0,1 ball) maqsadlarida o'sish qayd etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston «Ochiq Gender ma'lumotlar indeksida» («Open Data Watch» tashkiloti tomonidan yuritiladi) 69,7 ball to'plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi (18-o'rin). Bunda, mamlakatimizda «gender.stat.uz» saytining barcha bo'limlarida bugungi kunda 180 dan ziyod gender statistikasiga oid ko'rsatkichlar 3 ta tilda, 5 xil formatda joylashtirib borilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Umuman «Ochiq ma'lumotlar indeksida» O'zbekiston 70 ball bilan 195 mamlakat orasida 30-o'rinni egallab turibdi.


Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning «inson, jamiyat va davlat barqaror rivoji» tamoyilini hayotga tatbiq etish siyosati, ushbu oylik tadbirlarining yuqori saviyada o'tkazilishi, uning doirasida ishlab chiqiladigan xulosalar va tavsiyalar, shubhasiz, jonajon Vatanimizning taraqqiyoti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

VAZIYATGA
NAZARmilliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi

5

15-noyabr, 2023-yil
№39 (1227) chorshanba

O'ZBEKISTON

4 KUNLIK ISH VAQTIGA
O'TADIMI, YO'QMI?BUNDAN QAT'IY NAZAR MEHNAT
UNUMDORLIGIGA OID DAVLAT DASTURI KERAK!

Tahlillarga ko'ra, so'nggi 30 yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan birorta ham davlat dasturi amalga oshirilmagan va bu boradagi ishlar tizimli yo'lga qo'yilmagan.

Vaholanki, davlatning eng dolzarb vazifalaridan biri cheklangan resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini ta'minlashdir. Bu o'rinda mehnat unumdorligini oshirish orqali dastlabki bosqichda yangi investitsiyalarsiz bevosita ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish, shuningdek, bilvosita uy-xo'jaliklarining xarid qobiliyatini ko'tarish alohida e'tiborni talab etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda 2021-yili o'rtacha mehnat unumdorligi ko'rsatkichi (2017-yil xarid pariteti bo'yicha) 19,3 ming AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich, Irlandiya (215,4 ming doll.), Singapur (163 ming doll.), AQSH (131 ming doll.) hamda Norvegiya (126 ming doll.) kabi davlatlarga nisbatan 11 barobargacha past bo'lganini ko'rsatayapti.

Xorijiy davlatlar tajribasiga qarasa, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish dasturlari asosan miqdoriy ko'rsatkichlarga emas, faqat sifatga erishishga e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Shuningdek, mehnat unumdorligini oshirishda qisqa va uzoq muddatli davlat dasturlarini amalga oshirish hal qiluvchi omil hisoblangan.

Jumladan, AQSHda 1967-1982 yillarda davlat dasturlarini amalga oshirish bir ishchining mehnat unumdorligini yiliga o'rtacha 1,5 foizdan o'sishini ta'minlagan. Singapurda esa 2009 – 2019-yillarda mamlakat YAIMni 30 foizga oshirishda boshqaruv samaradorligini oshirish va biznesni qo'llab-quvvatlash davlat dasturlari bilan bir qatorda mehnat unumdorligini oshirish dasturlaridan samarali foydalanilgan.

Qozog'istonda ham 2011 – 2014 yillarda «Unumdorlik 2020» davlat dasturining birinchi qismini amalga oshirish mehnat unumdorligini 60 foizga oshirish imkonini bergan.

Yuqoridagilarga asosan, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan konsepsiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish, davlat boshqaruvi sohasiga mehnat unumdorligi hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etishni taklif etamiz.

Davlat boshqaruvi sohasiga mehnat unumdorligi hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etishda esa eng avvalo, ish vaqti me'yorlariga amal qilish talab etiladi.

Ma'lumki, Mehnat Kodeksining 182-moddasida xodim uchun ish vaqtining normal davomiyligi haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Shu bilan birgalikda olti kunlik ish haftasida har kungi ishnig muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan oshmasligi qayd etilgan.

Ammo aksariyat davlat tashkilotlarida faoliyat yurituvchi xodimlar ziyoli, oliy ma'lumotli kadrlar hisoblanisa-da, mehnat unumdorligi dasturi yo'qligi bois, ko'p vaqtini ishxonasida o'tkazayapti. Natijada xodim oilasi va yaqinlariga kam vaqt ajratayapti. Bu o'z-o'zidan oila mustahkamligiga salbiy ta'sir qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, davlat xizmatchisining vaqt me'yorlariga amal qilmasdan ishlashi shaxsiy hayot va salomatligiga ham putur yetkazadi.

Alohida qayd etish joizki, oilada ota namuna obyekti hisoblanib, uning bolaga ajratadigan vaqt unda shaxsiy fazilatlarining shakllanishida, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim

rol o'ynaydi. Ota mehri, tarbiyasi va aytish joiz bo'lsa, nazoratidan ayro holda o'sgan farzandlar – zanjir reaksiyasi tufayli uzoq vaqtlardan keyin o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi kafolatlanmagan.

Ushbu masalaning ijtimoiy oqibatlarini ham mavjud. Xususan, dunyoning rivojlangan davlatlari, hattoki, qo'shni Qozog'istonda ham 4 kunlik ish vaqtiga o'tish borasidagi harakatlar boshlangan bir paytda, bizda nafaqat 5 kunlik ish vaqti me'yorlariga amal qilmaslik (asosan davlat tashkilotlari inobatga olindi), balki, shanba, yakshanba, kerak bo'lsa, bayram kunlari ham ishga jalb etish holatlari kuzatilmoqda. Bu aynan davlat boshqaruvining asosiy bo'g'ini vakillarida norozilik kafiyyatini yuzaga keltirishi mumkin.

Qayd etish joizki, bu borada xorijiy davlatlarda o'ziga xos tajriba maktabi ham yaratildi. Masalan, 2022-yili "4 Day Week Global" nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlikda Irlandiya, AQSH, Avstraliya va Yangi zelandiyalik ish beruvchilar 4 kunlik ish haftasini sinovdan o'tkazdilar. Ahamiyatlisi, sinovlar haftasiga 3 kun dam olib ham ish unumdorligini pasayitmasdan, aksincha, oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

Buyuk Britaniyadagi 73 ta kompaniyada o'tkazilgan sinovlar esa ish vaqti kamroq bo'lsa ham, xodimlarning ish unumdorligi ortganini ko'rsatdi.

Bu 2019-yilda "Microsoft"ning Yaponiya ofisida o'tkazilgan sinovlar tadqiqotda ham o'z isbotini topdi. 4 kunlik ish haftasi joriy qilingan muddatda Microsoft xodimlarining ish unumdorligi 40 foizga oshgan, kompaniyaning elektrga ketadigan xarajatlari esa 23 foizga kamaygan.

Ish haftasining bir kunga qisqarishi qatnov vaqtini ham kamaytiradi. Sinovlar davrida yo'llardagi qatnov vaqti haftasiga 3,5 soatdan 2,6 soatga – 27 foizga pasaygan. Ishga mashinasida qatnaydigan odamlar esa 56,5 foizdan 52,5 foizga kamaygan. Massachusetts universiteti olimlari o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, ish vaqtini 10 foizga qisqartirish shaxslar hosil qiladigan karbonat angidridni 8,6 foizgacha kamaytirganini ko'rsatdi. Bu esa ekologiyaga zararni ham ma'lum ma'noda qisqartirish mumkinligidan dalolatdir. Ish vaqti me'yorlariga amal qilmaslikning davlat byudjetiga keltiradigan zarari esa alohida masala.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tanlov asosida bir hududda 6 oy muddatga ish vaqti me'yorlariga to'liq amal qilish rejimini joriy etish orqali xodimlarning mehnat unumdorligi va kafiyyatini o'rganish lozim. Olingan tajriba va xulosalar asosida esa boshqa hududlarda ham mazkur tartibni joriy etish mumkin bo'ladi.

Nurmuhammad AXMEDOV,
Prezident huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy
agentligi
bosh mutaxassisi



УБОР ЙЎҒИ

ЁШДА ЭДИ

ЁХУД СОЛОВКИ ЛАГЕРИДА ТОМГАН СЎНГГИ ТОМЧИ ЁШ ҲАҚИДА...

«...Бир йилдирким Оврупода яшамокдаман. Илм-маорифда Оврупоинг биринчи бўлган Германия дорулфунунларида бутун дунёдан, ҳатто татарлардан ўнлаб, турклардан эса минглаб талабалар бўлгани ҳолда бизнинг Туркистондан мендан бошқа талабанинг бўлмаслиги юрагимни парчаламоқда...»

Англаганингиздек, бу «Муаллимлар жамияти» кўмагида 1921 йили таълим олиш учун Германияга борган, 1922 йили 70 дан ортиқ турли ёшдаги ўзбек йигит-кизларининг олмон юртига ўқишга келганини эшитиб беҳад суюнган Абдуваҳҳоб Муродий мактубидан парча эди.

Орадан бир аср вақт ўтганига қарамай, мактубни ўқисангиз ундаги юрт келажаги ҳақида қайғуришдек бир дардни ҳис қиласиз.

«Биринчи дипломли агроном», дея эътироф этилган Абдуваҳҳоб Муродий 1901 йилнинг 29 майида Тошкентнинг Эгарчи маҳалласида туғилган. Қашшоқ оила фарзанди Абдуваҳҳоб болалигиданок ўзидаги чексиз ғайрат ва иқтидорни туғайли Тошкент тараккийпарварларининг етакчиси Мунаввар қори Абдурашидхоннинг назарига тушади. Шундан кейин, унинг таълим ва тарбия олишига Мунаввар қори тўлиқ ҳомийлик қилади. У 1913 йили Эшонхўжа Хонийнинг «Хоний» мактабининг, 1914 йили эса Мунаввар қорининг «Намуна» мактабларини битиради. 1915 йил Мунаввар қори тавсияси билан Наманган шаҳридаги жадид мактабига ўқитувчи сифатида йўлланиб, бир йил у ерда ишлайди. 1916-1917 йиллар Тошкентдаги «Ҳаёт» мактабида дарс беради. 1917-19 йилларда эса Озарбайжоннинг Боку шаҳридаги зироат билим юртида ўқийди. Сўнг Тошкентга қайтиб, 1919-20

йиллар «Машраб» мактабида дарс беради, сўнгра мудирлик қилади. Шу билан бирга Саид Ахрорийнинг «Изчилар тўдаси», Фитратнинг «Чингитой гурунги» ташкилотлари талбирларида фаол иштирок этади.

Шу ўринда Абдуваҳҳоб Муродий Туркистонга келган таниқли турк генерали Жамол пошшонинг маслаҳати билан Германияда ўқишга қарор қилганини айтиш жоиз. Унга Акмал Икромов ташаббуси билан «Муаллимлар жамияти» ҳазинасидан маълум миқдорда пул ажратилади. 1920-21 йилларда Афғонистонда бўлиб, 1921 йил июлида Германияга етиб боради ва Берлиндаги Кишлоқ ҳўжалиги академиясига ўқишга қиради.

Берлин зироат академияси талабаси Абдуваҳҳоб Муродийнинг «Кизил байроқ» газетасида «Германиядан хат» руқни остида чоп этилган илк мактубида у Тошкентда очилган «Кўмак» жамиятини кўлаб шундай ёзганди: «Тошкентдан олинган бир хатда Оврупода талабалар юбормок учун сизларнинг бир уюшма тузганингизни ўқидим ва теримга сиғмайдирган даражада суюндим. Бир йилдирким Оврупода яшамокдаман. Илм маорифда Оврупоинг биринчи бўлган Германия дорулфунунларида бутун дунёдан, ҳатто татарлардан ўнлаб, турклардан эса минглаб талабалар бўлгани ҳолда бизнинг Туркистондан мендан бошқа талабанинг бўлмаслиги юрагимни парчаламоқда. Бошқаларга ҳасад сезгисини уйғотмоқда эди. Мана сизларнинг бу хайрлик муборак ташаббусингиз бир йилдан бери қулмаган кўнглимни қулдирди ва руҳимга жон берди».

Газетанинг кейинги сониди Оврупода мамлакатлари орасида таҳсил учун ҳар жиҳатдан маъкули Германия эканлигини таъкидлаб: «...немислар ўзларининг ҳисобиди душманларини енгмак учун Шаркнинг уйғонмокчилигини истайдирлар. Бу қунгача Шарк тўғрисида ёзган китоблари бутун бетарафлик билан ёзилмишди. Фақат илмда, маорифда булар Оврупода устоз саналадилар. Немисларнинг олий мактабларида юзлаб амриколик, француз ва инглизларнинг бўлишини ва бу ерда муҳандис тўпламок учун бир мунча хайбатларнинг келиши меним бу давомини исбот этадир» дейди.

Сўнгги мактуби «Германияда ўқиш ва ўқитиш» сарлавҳаси остида бўлиб, унда Муродий «...Германияда 21 дорулфунун ва бошқа сонсиз ююри ва ўрта даражалик мактаблар бор. Германия дорулфунунлари мактаб бўлишдан бошқа яна бир қошиқлар, ихтиро қилғучилар ёгонидир. Германия дорулфунунларидаги ўргатиш усули ҳеч бир ерда йўқдир... Дарсни эшитмак билан қолмас. Балки, дарсининг руҳига кириб кетар. Фанни ўзидан йироқ эмас, ўз ичиди ҳис этар. Мана шу сурат билан унинг миёсида фан тутилув ва яшар. Ихтиро фикри уйғонур. Катта имтиҳон бўлганда ана шу дарсдан ҳам сўз, ҳам ёзув билан имтиҳон берур. Сўнгра шул фан тўғрисида бир китоб ёзар. Ул китоб мударрислар орасида ўқилур. Улар танкид этарлар. Талаба исбот қилур. Шул йўл билан талабанинг фаннинг ҳар нуқтасига етишганлиги билинғач қўлига шаҳодатнома берилур. Бу шаҳодатномани олган талабага ҳар қандай иш топширилур. Талаба бир назаргетчи бўлиб эмас, балки, ҳақиқий бир фан олими бўлиб етишар» дейди.

1922 йилнинг қузиға келиб, Германия тупроғига юзга яқин туркистонлик ёшлар ҳам қадам қўйди. Абдуваҳҳоб уларни иқтидорига кўра, таълим соҳаларни танлаш ва ёшларни олмон хонадонларига жойлаштириш ишларига бош-қош бўлди. Мунавварқори ва Фитратлар маслаҳати билан Оврупода йўл олаётган ёшларнинг ҳар бирига

учтадан дафтар тақдим этилган эди. 1-дафтарга эғаллаётган соҳасига оид чуқур илмий маълумотлар, китоблар ва энг йирик олимларни ёзиш; 2-дафтарга ўша соҳа педагогикаси, таълим даргоҳлари, кадрлар қаерда ва қай тартибда ўргатилиши; 3-дафтарга соҳанинг асосий тушунча ва терминлари, қайси тилдан олинган ва қандай маъно бериши, ўзбек тилида қайси сўзга мос тушишини ёзиш.

Жадидларнинг фикрича, бирон фан бирор миллатда илдиз отишининг асосий шарти миллат ўша фан терминларини ўз тилида шакллантирмоғи лозим эди. Акс ҳолда, фан тили ҳукмрон бўлган миллатга тобеъ бўлиб қолади. Шунинг учун, ёшларнинг бир қисми автомобил, электр, велосипед, пойабзал, доришунослик қорхоналарига жойлаштирилди. Улар уч дафтарни юритишар, соҳадиги асосий усқуналар, деталлар, уларнинг материал таркиби, ясалиш

«кизил империя»ча сиёсат тарафдори бўлган кимсаларга ёқмасди. Улар ёш ўзбек агрономининг иш жараёнига турли бўҳтон билан қаршилик кўрсатдилар. Шунга қарамай, у қисқа муддатда Ўзбекистон қишлоқ ҳўжалиги тажриба станциясида кўпгина иқтидорли шогирдларни етиштиришга улгуради. Тошкент тумани Аччи овулида ўз ташаббуси билан тузилган «Кизил намуна» жамоа ҳўжалигида Германияда ўрганган илмларини ишга солиб жуда бой жамоа ҳўжалигини юзга келтиради ва ўз даври учун мисли кўрилмаган иқтисодий ютуқларни қўлга қиритади. Муродий Берлиндаги таълими давомида Ватанига йўллаган мактубларнинг бирида шундай ёзган эди:

ОВРУПО ВА БИЗ

Германияга келганимдан сўнг овруполикларни яқиндан танимокка муваффақ бўлдим. Бутун Оврупода барча ҳукумат

1931 йилнинг 25 апрель куни ОГПУ коллегияси қарори билан Абдуваҳҳоб Муродийга берилган отув ҳукми 10 йиллик концлагер билан алмаштирилди. Айрим маълумотларга қараганда у жазони Оқ денгиздаги ороларда жойлашган даҳшатли Соловки лагеридида ўтаган ва шу жойда ҳалок бўлган.

усуллари, асосий адабиётларини Ватанга йўлларди. Шанба, якшанба қунлари илмий саёҳатлар уюштириб, шаҳарлардаги асосий қорхоналар, уларнинг тузилиши ва иш усуллари, иқтисодиётдаги аҳамиятини муҳокама этишарди. Ҳар ўн беш қун, бир ойда Файзулла Хўжаев томонидан соғва қилинган Берлиндаги Маориф уйида жамланишиб, талабалар ўзлари ўрганаётган соҳа ва амалга ошираётган ишлари ҳақида маърузалар қилишарди. Тadbир адабий кечага улашиб, кичик театрлар сахналаштиришар, мушоиралар уюштиришарди.

1926 йил Абдуваҳҳоб Муродий тўрт ой давомида Мисрда пахтачилик соҳасида амалиёт ўтаб, Европа таълим муассасасида олий маълумот олган биринчи ўзбек агрономига айланди. «Ер юзи» журналининг 1926 йилдаги 11-сониди «Биринчи дипломли агроном» мақоласида муаллиф ўқувчиларга Муродий ҳақида хабар беради ва кейинги йилларда «...юзларча муҳандис, кимёгар, дўхтир, социолог мутахассисларга эғабўлурми» деб умидланган.

1927 йили Ватанга қайтган Муродий совет ҳукумати идоралари томонидан ишонсиз шахс деб топилди. Бир муддат ишсиз қолади. Бу вақтда эса ўзининг Германиядан келтирган китоблари асосида болалар учун олмон адабиётидан таржималар қилади, қатор дарслик ва ўқув қўлланмалари яратди. Жумладан, «Ботаника», «Пахта етиштириш усуллари» каби китобларини чоп этади, вақтли маббуотда кўплаб мақолалари босилади. Абдуваҳҳоб Муродий 1927 йилнинг сўнгида Шредер номидаги Боғдорчилик илмий-текшириш институтида директор муовини сифатида ҳам ишлайди. Кейин Ўрта Осиё давлат университети-нинг қишлоқ ҳўжалиги факультетида ўқитувчи вазифасида ишлай бошлайди. Шунингдек, у машҳур қозоқ адаби Мухтор Аvezов, академик Боровковлар билан шарқ факультетининг туркийшунослик бўлимида ҳам илмий ҳодим сифатида ёшларга таълим беради. Бир сўз билан айтганда, Абдуваҳҳоб Муродий тинимсиз илмий ва амалий меҳнат фаолияти билан бир пайтда матбуот саҳифаларида шарқшунослик ва ўзбек имло-си масаласига оид мақолалари билан ҳам қатнашди.

Ўзбекистон ҳукумати раҳбарлари Файзулла Хўжаев ва Акмал Икромовлар унинг номзодини бир неча марта Ер ишлари комиссари лавозимига тавсия этадилар. Бу эса айрим

одамларининг ва катта бойларнинг қўшилиши билан буюк-буюк жамиятлар тузилгандирким, максаллари Шаркни бир умр қоронғиликка сақламокдир. Ул жамиятлар бир тарафдан Шаркни текширар. Шарк тўғрисида китоблар ёзар ва унинг ҳар бир ҳаракатини орқасидан таъкиб этар.

Шарқда маориф ва тараккийга бўлган ҳар бир қимирлашнинг тўхтатмокучун бутун қучи билан тиришади. Ҳар бир воситага мурожаат қилади. Фақат ўшал жамиятларни айлантиригучилар билан қўришиб қолган чоғингизда сизга - сиз Шарк ўзига энг мулоим сўзларни айтатидир. Сизга энг яқин дўст бўлиб қўринади. Булар Шаркнинг тарихини текширишга ҳам кўп катта аҳамият берадилар: Мана бунингдек масҳарабозлар жамияти ёлғиз Германиядагина йўқдир. Балки, немислар ўзларининг ҳисобсиз душманларини енгмак учун Шаркнинг уйғонмокчилигини истайдирлар. Бу қунгача Шарк тўғрисида ёзган китоблари бутун бетарафлик билан ёзилмишди. Фақат илмда, маорифда булар Оврупода устоз саналадилар. Немисларнинг олий мактабларида юзлаб амриколик, француз ва инглизларнинг бўлишини ва бу ерда муҳандис тўпламок учун бир мунча хайбатларнинг келиши меним бу давомини исбот этадир.

Сўнгра бошқа Оврупода давлатларига қараганда энг яқини ҳам шудир. Шўролар ҳукуматининг Германия билан яхши алоқада бўлиши ва Германия билан шўролар Россияси орасида мушоадалар бизни яна Германияга тортар. Шулар сабабларга кўра Оврупода юбориладиган талабаларнинг энг аввал Германияга юборилмоғи ҳар тўғридан ақлга мувофиқдир. Бунга муваффақ бўлмок ҳам унча қийин эмас. Бизнинг ўз тилагимиз ва шўролар ҳукуматининг бу қунги сиёсати ҳам бу фикрга тўғри келади».

Абдуваҳҳоб Муродий 1930 йил 25 апрель куни Мунавварқори Абдурашидхон раҳбарлигидаги «Миллий иттиҳод» ташкилоти азёси сифатида ОГПУ томонидан қамокка олинад. У бир йилдан ортиқ вақт давом этган қийнок ва таҳқирлар остида сўроқ қилинади. Бу тергов материаллари маъмуни бугун Муродийнинг жазмочи эмас, аксинча ҳақиқий исботловчи далиллардир. Жумладан, у терговчининг Германияда таҳсил олган Туркистон ёшларининг мақсади ҳақидаги саволига қуйидагича жавоб бе-

ради: «... Биз Германияда фақат бир нарса ҳақида ўйлар эдик. Аввало, ҳорижий тилларни ўрганиб, Оврупода илм-фанни ютуқларини мамлакатимизга олиб қирамиз дер эдик. Шу мақсадда тил курсларини тугатиш билан тездан энг иқтидорли йигитларни имкон қадар турли-туман саноят ва илм-фан жаҳаларига кенгрок тақсимладик. Шу билан бирга ўша илмларнинг асосларини мукаммал эғаллаш, туркий тилида уларнинг терминологик луғатларини тайёрлаш, керак бўлганда ўзимизда янги авлод-ни етиштириш учун ўша фан ва ҳунарларнинг ўқитиш усулларини ўзлаштирдик. Китобларини тўплаб кенгрок маълумотларни ўзлаштиришга, таржималар қилишга интилдик. Мақсад Ватанга катта илм билан қайтиш эди. Бирок, бизга нисбатан тайзикни қун сайин қучайтириб боришди. Ҳатто, бир қисм ёшлар мамлакатга қайтиб боришдан қўриқ қолдилар... Мен Туркияда кўплаб танишлар орттирганим, менга у мамлакатнинг наспорти ҳам берилган эди. Бирок, Оврупода Ватаним раънақи учун хизмат қиламан деб йўл олган эдим. Мени Ватанга ҳам фақат унга фойда тегади деган мақсад етаклаб келди. Ватанимда осон бўлмаслигини билганим ҳолда қайтдим. Тирик қолсам Ватанимда яшайман, акс ҳолда унга хизмат қилиб ўламан...».

1931 йилнинг 25 апрель куни ОГПУ коллегияси қарори билан Абдуваҳҳоб Муродийга берилган отув ҳукми 10 йиллик концлагер билан алмаштирилди. Айрим маълумотларга қараганда у жазони Оқ денгиздаги ороларда жойлашган даҳшатли Соловки лагеридида ўтаган ва шу жойда ҳалок бўлган. 1932 йил уни Тошкентда интизорлик билан қутаётган ва аллақачон ўзбек тилини ўрганиб олган турмуш ўртоғи - олмон кизи Марта хоним ва кизалоғи Потье (ўзбекча исми Мария)лар шўролар мамлакатидан чиқариб юборилад. Ҳуллас, мустабид тузум ҳеч бири ўз исботини топмаган бўҳтонлар билан энди-гина 30 ёшини қаршилаган етук мутахассиснинг ҳақида зомин бўлади.

Таассуфки, эндигина 30 баҳорини қаршилаган, миллат қайғуси билан ёнган олов қалбли миллат фарзанди нотаниш ўлкаларда, совуқнинг қаҳратон бағрида Она замини ва оиласи соғинчи билан жон беради. Балки унинг сўнгги сўзи «Алвидо Ватан» бўлгандир, балки бўғзида қолган армони суюкли ёри, азиз кизи дийдорига етмок бўлгандир. Балки, сўнгги дақиқаларга қадар Ватанга қайтмок умиди уни ўлимга, мустабид тузум адолатсизликларига бўйин эгмаган руҳи, олов нигоҳида сўнгги томчи ёш бўлиб оккандир...

Афсуски, Абдуваҳҳоб Муродийдек миллатимиз ойдинининг сўнгги қисмати ҳақида ҳеч қандай маълумотга эга эмасмиз. Минг афсуски, унинг номи Ўзбекистон миллий энциклопедиясидан ҳам жой олмаган. Тўғри, у ўтган асрнинг 80-йиллари сўнгида Мунавварқори Абдурашидхон билан бир пайтда окланган. Бирок, шундан сўнг ҳам унинг улкан илмий мероси ва ижтимоий фаолияти жиддий тадқиқ этилмаган. Турмуш ўртоғи Марта хоним ҳамда кизи Потьеларнинг ҳам кейинги тақдирини биз учун номаълумлигича қолмокда.



Баҳром ИРЗАЕВ, Қатагон қурбонлари хотираси давлат музейи катта илмий ҳодими

✓ Кутинг!



MAJORITAR VA PROPORSIONAL SAYLOV TIZIMI SARI

Келгуси сонларда

ОЛИЙ МАЖЛИС ҚОНУНЧИЛИК
ПАЛАТАСИ ДЕПУТАТЛАРИ ДИҚҚАТИГА!ЖАЗАВАГА ТУШАЁТГАН
ОРСИЗЛИКмиллат учун, янги
авлод учун қимматга
тушмаяптими?

Расмдаги шоввозларни танияпсизми? Унда таниб олинг. Айнан улар ўз хатти-ҳаракатлари, тутуриқсиз чиқишларию, уятсиз хангомалари билан сизу бизни шарманда қилишдан тийилмаяптилар. Орсизликни тарғиб қилиш уларнинг касби-қори. Тўғри, эрта ўтиб, индин улар мақола муаллифи ва таҳририятни судга беришлари, шахсни очик-ойдин ҳақорат қилгани учун жарима ундиришга ҳам уриниб кўришлари мумкин. Бунинг учун қонунчиликда ҳуқуқий асос ҳам бор экан. Аммо афсуски, амалдаги қонунчилигимиз, уларнинг ўзларини халқнинг ор-номусини ерга урганлик, аҳоли, айниқса, ёшлар ўртасида ахлоқсизликни тарғиб қилиб, хатто ўз яқинлари олдида уятсиз чиқишлари билан ўзбек халқини шарманда қилаётганлари учун жазолаш имконини бермас экан...

Лекин ишончимиз қомилки, бу вақтинча, холос...

Таҳририят

Айтишларича, «Муштум» журналини йўргаклаб, кўп йиллар бешигини тебратган Абдулла Қодирий турли қаршиликларга қарамай, журналнинг изчил чоп этилиши учун роса курашган экан. Ундаги қулғили ва аччиқ ҳажвиялар шунчалар таъсирли эканки, буни хатто шўро ҳукуматию, унинг мафкураси ҳам «ҳазм» қилишга қийналган экан. Маҳаллий бойлар, мутаассирлар эса ўз ишчи-хизматқорларига бу журнални ўқишни буткул ман қилишгани ҳам бежиз эмас экан... Лекин адиб маслакдоши Ғоzi Юнус билан бирга ўз максадларидан оғишмаганлар, пировардида, кўплаб порахўр ва бокибега иккиюзламачилар ушбу нашр чангалига тушиб қолмаслик илинжида ёмон йўллардан қайтишга мажбур бўлган эканлар...

Афсуски, бугун ана шундай кучга эга бўлган ҳажвия, кизикчилик санъати ўрнини уятсизлик қошиғини оғзидан қўймайдиган сохта санъат аҳли эгаллади. Энг ёмони, бугун ҳажвчи адибларимизни санасак ҳам бармоқларимиз ортиб қолар даражага борди. Аммо беҳаё ҳазиллар ва уларнинг шапқўр муаллифлари ижоди маънавиятимиз қосасини тўдларга бошлади.

Негадир бу масалада мутасаддилар ҳам, жамоатчилик ҳам қўл қовуштириб ўтиришдан нарига ўтмаяпти. Уларнинг фикрича, ижтимоий тармоқ деган минбарнинг эгаси йўқ, унинг тартиб-қоидалари ҳам қарор топмаган. Биламизки, бирор фуқаро, жамоатчилик вакилими, депутатми ёки психолог бўлсин, жиндай хато қилиб қўйса, отини эгарламай чоптираётган ҳам, аёл хонандаларнинг кийимидан тортиб, шиширилган лабларигача муҳокама қилаётганлар ҳам уларга ташлана бошлашади. Лекин негадир ижтимоий тармоқда «хизмат кўрсатган» кўплаб замонавий кизикчиларнинг чиқишларига кўз юмаяпмиз. Уларнинг беҳаё «асар»лари ҳеч кимни ташвишга ҳам солмаяпти. Хатто шу соҳада

ақл бўлиши мумкин бўлган айрим ташкилотлар ҳам жим. Гўёки минг йиллардан буён шундай бўлиб келгандек. Интернетдан бош кўтара олмай қолган ёшлар эса ён-верларига қарамай, ана шу қўлмақ ховузда «чўмилган» сассик ҳазилларни индамай «ютишяпти»...

Эътибор беринг: 2023 йилнинг биринчи ярмида мамлакатимизда интернетдан фойдаланувчилар сони 31 миллиондан ошган. Бу рақамларнинг асосий қисми ижтимоий тармоқдан фойдаланувчиларга тўғри келади. Хусусан, Facebook ва Instagramда мос равишда 7,6 миллион ва 7,1 миллион нафар аккаунт бўлса, Telegram мессенжерда 30,6 млн. Одноклассникдан эса 18 миллион киши фойдаланяпти. Уларнинг каттагина қисмини ёшлар ташкил этишини ҳисобга олсак, ҳавотиримиз бежиз эмаслиги ойдинлашади.

Балки бугунги авлод сизу биздан ақлли ва зийрак, улар ўзларига кераклисини олишади, керакмасини улоқтириб юборишади, дерсиз. Бирок ёшлар ўртасида ўтказилган ижтимоий сўровлар акс ҳолатни кўрсатяпти. Яъни, аксарият ёшлар бирон-бир жихатини оқлаб бўлмайдиган кимсаларга таклид қилишни маъқул кўришяпти. Аммо тан олайлик: ўшандай гуруҳларнинг ижтимоий тармоқларга жойлаган «асар»чаларини болаларимизга тавсия қилишдан кўра, уларни ижтимоий тармоқдан узиб қўйиш энг тўғри йўл бўларди. Бир қарасангиз, уларга турмушга чиқмаган кизлар нишон, бошқа бир ҳазилларида эр-хотин муносабатлари «реклама» қилинади. «Қалпоқ»чилару, «Шапалоқ»чилар «ишлаб чиқараётган» видеоларни кўриб, бундай нусхаларнинг қаердан пайдо бўлаётганини ўйлаб, ўйингизга етолмайсиз. Уларнинг кўпчилиги санъат йўналишидаги олийгоҳларни битирган бўлишларига қарамай, ўз манзилига, мақсадига етолмаган ва оёғи ботқоққа ботган оломонга ўхшашади. Ҳа, чиндан ҳам улар ўз чаласаводликлари учун ҳам рад этилган ва энди чаласавод



«Шапалоқ»чилар элга тақдим этаётган ўз видеоларини ўғиллари, қизлари ёки келинлари ва хатто набира қизлари кўриши ҳақида ҳам ҳеч ўйлаб кўрганмикинлар? Яъни уларнинг ўзлари ўша «бадбўй» чиқишларини оиласи даврасида — қизи, ўғли, келини ёки невараси билан бирга томоша қилишга жазм эта олармикин?

эмасликларини исботлашга уринаётган кимсаларга ўхшайди. Шахсан ўзим улар учун муқаддас нарсаси йўқ бўлса керак деб ўйлайман.

Чингиз Айтматов «Факат миллий, халқона таълим-тарбия билан маънавият, ички маданият пайванд қилинсагина одамларни ҳар қандай пасткашлик ва тубанликдан асраб қолиш мумкин», деган экан.

Шу ўринда бир мулоҳаза туғилади: Саид Аҳмаднинг 1976 йилда ёзилган «Келинлар кўзголини» ва 1984 йили суратга олинган шу номдаги комедияси ҳам бошқа сайёрадан эмас, айни ўша давр ижтимоий ҳаётидан олинган. Асар андиша билан, қадриятларимизни қадрлаб ёзилгани учун ҳам шу асосда ишланган кинофильм қарийб 40 йилдирки, севиб томоша қилинмоқда. Ёхуд Эркин Воҳидов «Донишқилоқ хангомалари»ни қоралаганда жамиятдаги ўзгаришларни ҳам, муаммоларни ҳам бирдек беғараз юмористик руҳда қаламга олганида муддаоси кинмидир шунчаки қуддириш эмас, инсонларга «кулгу оркали ибрат кўрсатиш бўлганини тезгина аңглаб оласиз. Аңлашшиладики, максадлари қайси мавзуда бўлсада, арзон «лайк», «подписка» йиғиш илинжидаги айрим касларга бундай мисоллар таъсир этмай қолган. Акс ҳолда халққа «сотаётган маҳсулот»ларининг эртага қандай натижаларга сабаб бўлишини ҳеч бўлса-да тушунган ва афеус қилган бўлардилар.

Эътибор беринг: чимилдик билан боғлиқ бир видеода ўзбек кизини ҳажв қилаётганлар бу образларни қаердан қўчиряпти? Нахотки, уларнинг қирланган онгига яралган сохта образлар орқали улар ўз миллатининг қизлари, опа-сингилларимизни кўрсатишга уринаётганларини тушунаётган бўлсалар. Ёки отаси тенги кишини «хотиним хомилдор, лекин мен эҳтиёт чорасини кўргандим» деган гапига «бу худди машина билан бахтсиз ҳодиса содир бўлишига ўхшайди, сиз эҳтиёт бўласиз, лекин бошқа ҳайдовчилар эҳтиёт

бўлмайди-да», қабилида жавоб қайтарилишини қайси юз, қайси фаросат билан миллионлар ҳуқмига ҳавола қилиш мумкин?

«Шапалоқ»чилар элга тақдим этаётган ўз видеоларини ўғиллари, қизлари ёки келинлари ва хатто набира қизлари кўриши ҳақида ҳам ҳеч ўйлаб кўрганмикинлар? Яъни, уларнинг ўзлари ўша «бадбўй» чиқишларини оиласи даврасида — қизи, ўғли, келини ёки невараси билан бирга томоша қилишга жазм эта олармикин?

Тўғри, гуруч қурмақсиз бўлмайди. Лекин кизикчилик санъатида жайдари ҳазиллар билан муҳлисларга қулгу улашаётган «гуруч»лар қамайиб, ҳамма жойини «курмақлар» босиб кетаётгани аянчли ҳолат, аслида. Назаримизда, маънавий тажовуз ҳар қандай миллатни осонгина оломонга айлантириши қундек равшан бўлиб бораётган бир паллада буларга эътиборсиз қараш жиноятга шерик бўлишдек гап. Баъзан оломонлашиш сари қадам ташлаётган жамиятнинг миллатга айлантириш эса афсуски, жуда қимматга тушиши, хатто имконсиз бўлиши ҳам мумкин.

Ўзбекистон зиёлилари билан учрашувда Президентимиз Шавкат Мирзиёев: «Ўзбекистонда адабиёт ва санъат, маданият, оммавий ахборот воситалари, маънавият ва маърифат бизнесга айландирилган шарт ва биз бунга ҳеч қачон йўл қўймаймиз», деган эдилар.

Афсуски, ўзини ўзи санъаткор деб эълон қилган, биров бир чақага олманидан кейин жонини жабборга бериб бўлса-да, ижтимоий тармоқлардан нажот излаётган айрим нусхалар учун пул ордан ҳам, номусдан ҳам қимматроқ шекилли.

Хўш, яна қанча чидаш мумкин бундай орсизликларга? Баски, ана шундай орсизлар оддий ахлоқ ва тарбия билан боғлиқ тартиб-қоидаларга амал қилмаяптиларми, демак уларнинг йўли қонун билан тўсилиши керак. Акс ҳолда бу иллат биз учун қутилганидан ҳам қимматга тушиши муқаррар.


Тўғри, бундай ноқасларнинг чиқишлари, алжирашлари ўз-

ўздан пайдо бўлиб қолгани йўқ. Узок йиллар давомида маънавият, таълим ва олий таълимда йўл қўйилган хатолар, энг ёмони, ахборот масаласида узокни кўра билмаслик оқибатида шундай инкирозлар юзага келмоқда. Маълумки, ижтимоий тармоқ бошқарилади ва унинг асосий эътибори билимсиз, лоқайд, ўтмиши ва келажагига бефарқ бўлган, миллатини унутган қатламни шакллантиришга қаратилади. Бундай интилишларнинг якуний натижалари ҳақида истаганча мисол келтириш мумкин. Бундан 30-40 йиллар аввал дунё олимлари ва жаҳон ОАВларида «бой берилган авлод» ибораси тилга олина бошланганини бир эсга олайлик. Бугун Ўзбекистонда ҳам айнан ўшандай ҳолатлар пайдо бўлмаётганига ҳеч ким қафолат беролмайди.

Қайд этиш жоизки, дунёда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар моҳияти ва мазмунини аңғолмаётган айрим кўр ва қар кимсалар билиб ёки билмай бизда ҳам лоқайдлик илдишлари суя қуйяптилар. Улар миллатни, айниқса, ёшларни бефарқ этиб тарбиялашга, ўтмас ақл ва дунёқараш эгалари бўлишларига ҳизмат қилмоқдалар. Экологик муаммолар, радикализм, терроризм тобора авж олаётган, бу балолар жамиятларни емираётган бир пайтда эр ва хотин муносабатларини бошига лозим қилиб қияётган сохта санъаткорлар ҳам, ўзларини вайнерлар деб атаётганлар ҳам ўз хатти-ҳаракатлари учун жавоб беришлари керак.

Умид қиламизки, мутасадди идораларимиз ижтимоий тармоқларни бемаъни ҳазиллари билан «гуллатиб», ёш авлоднинг маънавий оламига даҳл қилаётган айрим кизикчию, ҳажвиячиларга нисбатан чора кўрадилар. Қонун ижодкорлари бўлган депутатларимиз эса бу борада бироз фаоллик кўрсатиб, бир ёқадан бош чиқарсалар, бундай маънавий жиноятларнинг олди тезроқ олинган бўларди.

Меҳри ЖАҲОН



Юрак

Юрак, сенсан менинг созим,
Тилимни найга жур этдинг.
Кўзимга ойни беркитдинг,
Юрак, сенсан ишқибозим.

Сенга тор келди бу кўкрак,
Севинчинг тошди қирғоқдан,
Тилим чарчар, ажаб, гоҳи
Сени таржима қилмоқдан.

Сен, эй сен – ўйноқи дилбар,
Зафардан изла ёрингни.
Тўлиб қайна, тошиб ўйна,
Тирикман, куйла борингни!

Итоат эт!
Агар сендан
Ватан рози эмас бўлса,
Ёрил, чақмоққа айлан сен,
Ёрил! Майли, тамом ўлсам!

ЯНА ШЕЪРИМГА

(Сонет)

Шеърим! Яна ўзинг яхшисан,
Боққа кирсанг, гуллар шарманда.
Бир мен эмас, ҳаёт шахисан,
Жоним каби яшайсан манда.

Юрагимнинг дарди – нақшисан,
Қилолмайман сени ҳеч қанда!
Ўт бўлурми ишқи йўқ танда?
Дардимсанки, шеърим яхшисан.

Сен орада кўприк бўлдинг-да,
Гейне билан ўртоқ тутиндим.
Лермонтовдан кўмак ўтиндим.
Бутун умрим сенинг бўйингда.

Саҳарда қон тупурсам, майли.
Мен – Мажнунман, шеърим, сен – Лайли!

БОҒИМ

О, у қандай фусункор!
Нур билан тўлган бутун.
Гуллари чаман-чаман,
Мен уларни ичаман:
Кўнглимда яшнар баҳор...
Нур билан тўлган бутун.

Бардек узилиб кетсам,
Унутмас мени боғим:
Ишимни хурмат қилур,
Гуллардан ҳайкал қурур.
Минг йиллардан кейин ҳам
Унутмас мени боғим!

Шеърларим янграб қолур –
Бир умрга ўлмайман!
Ҳаётимнинг давоми –
Қелажагимга ҳомий,
Ўрнимга боғбон бўлур –
Бир умрга ўлмайман!

О, у қандай давомдор!
Нур билан тўлган бутун.
Гуллари чаман-чаман,
Мен уларни ичаман:
Кўнглимда яшнар баҳор...
Нур билан тўлган бутун.

ЮРГАНМИСИЗ БИРГА ОЙ БИЛАН

Юрганмисиз бирга ой билан
Оқшом пайти кўм-кўк ўрмонда?
Майсаларга шабнам кўнганда,
Шундай яхши тинч бўлар экан.

Шитир-шитир ўйнар шаббод,
Барглар мусиқаси бир ширин...
Ҳаво гўё тиниқ, соф бода –
Кўнгул сезар ҳаётнинг сирин.

Мен маст бўлиб қолдим бу кеча,
Сил ўпкамни анча яйратдим.
Ухламасдан то тонг отгунча
Дилгинамни роса сайратдим.

ДЕНГИЗГА

Оқ денгиз, яхши қол! Яхши қол, Шимол!
Кўнглимда ишқини олиб қайтаман.
Сочимни ўйнайди муздек ишқ шамол,
Мен унга дардимни қандай айтаман?

Кечқурун қирғоқда айланиб танҳо
Севдим, севиб қолдим тўлқинларингни.
Ойни чўмлитирган тинч тунларингни
Тушимда кўрганда не қиларман, о?

Ўйнагил сўнг марта, чайқал, эркалан!
Армоним қолмасин кетар олдимда.
Бағрингда болиқдай юзган оқ елкан
Бир умр сайр этгай менинг едимда...

Яхши қол, эркин сув! Яхши қол, денгиз!
Тўлқинлар, қўйнимга қиздай кирдингиз...

САВОЛ БЕРИНГ!

? – Педагогман,
2 та таълим
муассасасида
ишлайман.
Бундай ҳолатда
менга қачон
соатбай ҳақ
тўлаш шакли
қўлланилади?
Зухра Зарипова,
Навоий вилояти

? – Мен якка тартибдаги
тадбиркорлик билан
шугулланаман. Ҳозирда
фаолиятимни вақтинча
тўхтатмоқчиман.
ЯТТ фаолиятини
вақтинчалик тўхтатиб
туришим мумкинми?
Гўзал Наимова,
Тошкент шаҳри


– Вазирлар
Маҳкамасининг 2005
йил 21 декабрдаги
275-сон қарори билан
тасдиқланган «Халқ
таълими ходимлари
меҳнатига ҳақ
тўлаш тўғрисида»ги
низомининг 12-бандига
асосан кетма-кет икки
ойдан ортқ бўлмаган
даврада қиссаллик
ёки бошқа сабаблар
билан ишда бўлмаган
ходимларнинг ўрнини
босиш тартибда ишлаб
берилган соатлар учун,
бошқа муассасалардан
жалб этиладиган
ўқитувчилар ва бошқа
мутахассисларнинг,
шу жумладан,
ўриндошлик бўйича
бошқа мактаблардан
жалб этиладиган
ўқитувчилар ва
мутахассисларнинг
педагогик иши
учун, ўрнини босиш
тартибда умумтаълим
муассасалари
раҳбарлари томонидан
ўтилган ўқув соатлари
учун ҳақ тўлаш
қўлланилади.

– Мумкин. Солиқ кодексининг
392-моддасига асосан агар
якка тартибдаги тадбиркор
(оилавий тадбиркорлик
субъекти) ўз фаолиятини
муайян муддатга тўхтатса, у
ўз фаолиятини тўхтатгунча
қадр тадбиркорлик
субъектини рўйхатдан
ўтказувчи органга фаолиятни
вақтинчалик тўхтатиш
тўғрисида ариза бериш билан
бир вақтининг ўзида давлат
рўйхатидан ўтганлик ҳақидаги
гувоҳномани ҳам топширади.

yurist maslahati melegram
канали

? – Пенсия ёшига
етмаганман.
Лекин иш стажим
белгиланганидан ошиб
кетган. Бундай ҳолатда
менга пенсия қандай
ҳисобланади?
Сарвара Азимова,
Самарқанд тумани

– Аёлларга пенсияга чиқиш
учун 20 йил иш стаж талаб
қилинса, ходимнинг иш стаж
30 йилни ташкил қилса,
бундай ҳолатда пенсияни
ҳисоблаш учун қабул
қилинадиган ўртача ойлик
иш ҳақини 1 фоизга ошириш
орқали ҳисобланади.



? – Янги меҳнат кодексига кўра,
ишни ўқиш билан бирга олиб
бораётган ходимларга кафолатлар
ва компенсациялар берилади деб
эшитдим. Шу тўғрисида
Мирали Абдиев, Бухоро вилояти

– Ҳа. Тўғри. Меҳнат кодексининг
386-моддаси биринчи қисмига асосан
ишни ўқиш билан бирга олиб
бораётган ходимларга кафолатлар
биринчи марта тегишли даражадаги таълим
олаётганда берилади. Иккинчи марта
таълим олаётган ходимга кафолатлар ва
компенсациялар бермоқчи бўлса, у билан
қўшимча келишув тузиши ёки меҳнат
шартномасига ўқитиш бўйича кафолат ва
имтиёз ҳақидаги қоидаларни киритиши
лозим бўлади.

? – Тадбиркорман. Корхонамни
солиқ текширувидан
ўтказишмоқчи. Ушбу жараёнда
корхонанинг неча йиллик
фаолиятини текширилади?
Мухаммад Ашуров, Избоскан
тумани

– Текширишда тижорат
ташкilotининг охири
текшириш ўтказилган санадан
бошлаб (тижорат ташкilotини
текшириш давлат рўйхатидан
ўтказилган санадан бошлаб амалга
оширилмаган бўлса — давлат
рўйхатидан ўтказилган санадан
бошлаб) тижорат ташкilotини
туғатиш тўғрисида қарор қабул
қилинганлиги ҳақида рўйхатдан
ўтказган орган хабардор қилинган
санагача бўлган давр мобайнидаги
молия-хўжалик фаолияти камраб
олинади, бироқ ушбу давр уч
йилдан ошмаслиги зарур.



ОЛИЙ МАЖЛИС ҚУЗУРИДАГИ ЖАМОАТ ФОНДИ 2023 ЙИЛ УЧУН КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА БАНДЛИК ВАЗИРЛИГИНИНГ 2 МЛРД. СЎМЛИК БУЮРТМАСИГА ҚАЙТА ДАВЛАТ ИЖТИМОЙ БУЮРТМАСИ ТАНЛОВИНИ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ

УСТУВОР Йўналиш:
Маҳаллада тадбиркорлик
ни ривожлантириш, аҳоли
бандлигини таъминлаш ва
камбағалликни қисқартириш,
узқ кийоқ ҳудудларида иш-
сизликни қаматириш.

Ижтимоий аҳамиятга молик
бўлган лойиҳани амалга оши-
ришда давлат ижтимоий буюрт-
масининг шартлари:

- ижрочи-ташкilot белги-
ланган тартибда ННТ сифатида
рўйхатдан ўтган бўлиши зарур;
- давлат ижтимоий буюртма-
сини бажариш доирасида амалга
оширадиган фаолиятнинг иж-
рочи-ташкilotнинг уставидagi
вазифаларга мувофиқ келиши;
- ижрочи-ташкilotда лойиҳани
амалга ошириш учун зарур бўлган

кадрлар ва техник имкониятнинг
мавжудлиги;

- ижрочи-ташкilotда ижти-
моий аҳамиятга молик лойиҳалар
ва дастурларни муваффақиятли
амалга ошириш борасидаги таж-
рибанинг мавжудлиги;

- лойиҳани амалга ошириш
ҳақидаги шартномани сифатли ва
ўз вақтида бажариш, уни амалга
ошириш вақтида ажратилган
маблағлардан мақсадли фойдала-
нишни, очиклик ва ошқоралик
ни таъминлаш, амалдаги қону-
н ҳужжатларига тўлиқ риоя этиш.

Давлат ижтимоий буюртма-
си берилиши учун қуйидаги
ҳужжатлар тақдим этилиши зарур:
Ариза тақдим этаётган ННТ ва
фуқаролик жамияти бошқа инсти-
тутининг раҳбари имзоси ва муҳр

билан тасдиқланган қузатув хати;
www.fondngo.uz сайтида жой-
лаштирилган шаклда тўлдирилган
давлат ижтимоий буюртмаси
лоийҳаси учун ариза;

Охири ўзгартиш ва
қўшимчалар билан дав-
лат рўйхатидан ўтган ННТ ва
фуқаролик жамиятининг бошқа
институтиларининг Устави (Низо-
ми) нусхаси;

Ташкilotнинг давлат
рўйхатидан ўтганлигини
тасдиқловчи гувоҳнома нусхаси;
Агар лойиҳани амалга ошириш
лицензияланадиган фаолиятни
талаб қилса, унда лицензиянинг
нусхаси тақдим этилади.

Ҳужжатлар 2023 йил 3 ноябр-
дан 7 декабргача қабул қилинади.
Тақдим этилган муҳим ижтимоий

аҳамиятга молик лойиҳалар Жамо-
ат фонди маблағларини бошқариш
бўйича Парламент комиссияси
томонидан кўриб чиқиладиган ва на-
тижалари эълон қилинади.

Ҳужжатлар “Ўзбекистон
Республикаси Олий Мажлиси
хузуридаги ННТ ва фуқаролик
жамияти бошқа институтилари-
ни қўллаб-қувватлаш Жамоат
фонди” номига “Ўзбекистон
почтаси” орқали муҳрланган
конвертда (А4 формат) қуйидаги
манзил бўйича қабул қилинади:
100035, Тошкент шаҳри Бунёдкор
кўчаси, 1-уй.

Ҳужжатларни тақдим этиш
шартлари ва намуналари билан
Олий Мажлис қузуридаги жамоат
фондининг www.fondngo.uz расмий
веб-сайтида танишиш мумкин.

Эълон
Маълумот учун телефонлар:
78 238-23-76, 78 238-23-77

«MILLIY
TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING
IJTIMOIY-
SIYOSIY
GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nodir MUXTOROV,

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxozoda
ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
teriladi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Gazetada Internet
ma'lumotlari
va suratlaridan
foydalaniladi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga
qaytarilmaydi.

NAVATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afur OMONBOYEV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUADRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turo» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Mathuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 7 186.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 1116
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 01:40

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456